

## **PUDRAT SHARTNOMASI**

**ShARTNOMA № \_\_\_\_\_**

**665-13-181-XT/2022-son**

6«9»2022 yil.

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **Amudaryo tumani Xalq ta'lif bo'limi** nomidan rahbar **A.Ismailov** (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi (keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb ataladi) **“ Iqbol Dilmurod” MCHJ** nomidan rahbar **M.Sadullaev** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar:

### **1. ShARTNOMA PREDMETI.**

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Amudaryo tumani Xalq ta'lif bo'limiga qarashli **27-sonli** maktab binosini joriy tamirlash 3-etap ishlarni loyiha-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish va har bir topshirilgan ish xajmi uchun litsenziyasi mavjud proekt korxonalari tomonidan nazorat o'chovi ishlarni o'tkazib berish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlar hajmini o'tkazilgan nazorat o'chovi xujjatlariga asosan belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

### **2. ShARTNOMA BAHOSI.**

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyiha-smeta xujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni uz ichiga olgan holda qo'shimcha qiymat solig'i bilan jami **1.116.000.000**( Bir milyard bir yuz o'n olti million) so'mni tashkil etadi. QQS bilan **QQS-145565217. 39t**  
2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

### **3. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI**

3.1. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari to'liq bajarilgandan so'ng, o'zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, bajarilgan ishlari qiymati uchun «Buyurtmachi» pul o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi..  
3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini 30 % miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» hisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi hisob-kitoblar haqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, pudratchi tomonidan litsenziyasi mavjud loyihalash korxonasi tomonidan o'tkazilgan nazorat o'chov xujjatlarini taqdim qilgandan so'ng avans mablag'larini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

#### **4. ISHLARNI BAJARISH TARTIBI VA MUDDATLARI.**

- 4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar 10 kunga qadar to'liq yakunlanishi kerak.
- 4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lismeni va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.
- 4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mehnat muxosazasi va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

#### **5.TOMONLARNI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.**

- 5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini to'liq hajimda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.
- 5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyiha-smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.
- 5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan Shabl-2 dalolatnomalarini qabul kilib oladi.
- 5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuksonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va 10 kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuksonlar uz mablag'i va uz kuchi bilan 10 kun davomida bartaraf etiladi.

#### **6. JARIMALARNI QO'LLANILISHI.**

- 6.1. Tomonlardan biri shartnomada shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.
- 6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.05% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi. lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.
- 6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar uz muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.04% miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablag'lar summasini 50% dan oshmasligi kerak.
- 6.4. Jarimalar to'lanishi «Sotuvchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

#### **7. FORS-MAJOR XOLATLARI.**

- 7.1. Agar ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmagli tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshka yengib belmas kuch xolatlari natijasida kelib chiksa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

## 8. KO'SHIMCHА SHARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, uzgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmasa xo'jalik sudi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda hal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor kilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnoma 6.09.2022-2022-yil «31» Dekabrgacha tuzildi. Shartnoma ikki tomonlarga imzolanib, g'aznachilik boshqarmasi (bo'lim)da ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

9.1.. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga qo'llangan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi korrupsiyaga qarshi bo'lgan tegishli shartlar va talablarini tushunish haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishni kafolatalaydi. Xaridor ushbu shatnomada amalda bo'lgan butun davr moboynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktor, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) sotuvchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, sotuvchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarning korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qatiy rioya etish majburiyatini olad


## 10. TOMONLARNI XUKUKIY MANZILI VA REKVIZITLARI

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

### PUDRATCHI

#### "Iqbol Dilmurod" MCHJ "

Bank-Nukus sh.Asaka" AJ.Nukus fil  
MFO-00625 INN-306078894  
X/R -20208000805068254001  
Tel(90)-186-29-52  
Adres.Mangit sh.Turkiston -64  
Raxbar M.Sadullaev.



### BUYURTACHI

Amudaryo tuman XTB

ShXR: 100022860352047092100075104  
INN: 200374083 MFO: 00014  
Markaziy bank Toshkent shahar  
Mangit shahar. Qipchaq ko'chasi  
raqamsiz uy

Amudaryo tuman G'aznachiligi

A.Ismailov

m.o.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarining

ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Amudaryo tumani Irrigatsiya bo'limi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsnинг manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yokisodir etmasligi shartligiyohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:
  2. pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;
  3. tovlamachilik qilish;
  4. pora sifatida pul to'lash;
  5. bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.
  6. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'riliishiga kafolat beradi.
  7. 2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Amudaryo tumani Irrigatsiya bo'limi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak: korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni: \_\_\_\_\_ Telegram-kanali ("@");


Amudaryo tumani Xalq ta'lim bo'limi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

8.

TOMONLAR

PUDRATCHI

"Iqbol Dilmurod" MCHJ  
Bank-Nukus sh.Asaka" AJ.Nukus fil  
MFO-00625 INN-306078894  
X / R -20208000805068254001  
Tel(90)-186-29-52  
Adres.Mangit sh.Turkuston -64  
Raxbar. M.Sadullaev.



BUYURTACHI

Amudaryo tuman XTB  
ShXR: 100022860352047092100075104  
INN: 200374083 MFO: 00014  
Markaziy bank Toshkent shahar  
Mangit shahar. Qipchaq ko'chasi  
raqamsiz uy

Amudaryo tuman G'aznachiligi  
A.Ismailov

m.o.

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	AKMAL ISMAILOV JANGABAYEVICH
	Imzolangan sana	6 сен 2022 12:02
	Hujjat kodi	ZP5134846468
	Hulosa kodi	QE1673784243

## **Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning qonun hujjatlarninga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy xulosa**

### **I. Loyhaning turi: Shartnoma**

**II. Loyihaning nomi va mazmuni:** Ikki tomonlama xo‘jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi xamda o‘z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **Amudaryo tumani Xalq ta’lim bo‘limi** nomidan rahbar **A.Ismailov** (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomonidan va o‘z Nizomi asosida ish yurituvchi (keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) **“Iqbol Dilmurod” MCHJ** nomidan rahbar **M.Sadullaev** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzildilar.

Shartnomaga asosan Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Amudaryo tumani Xalq ta’lim bo‘limiga qarashli **27-sonli** maktab binosini joriy tamirlash 3-etap ishlarini loyiha-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish va har bir topshirilgan ish xajmi uchun litsenziyasi mavjud proekt korxonalarini tomonidan nazorat o‘lchovi ishlarini o‘tkazib berish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlar hajmini o‘tkazilgan nazorat o‘lchovi hujjatlariga asosan belgilangan tartibda qabul qilib oladi.

*Shartnoma umumiy summasi: 1.116.000.000 ( Bir milyard bir yuz o‘n olti million) so‘mni tashkil etadi.*

### **III.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Amudaryo tumani Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan 2022-yil 5-sentabr kuni ishlab chiqilgan va shu kuni dasturga kiritilgan.

Mazkur loyiha O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi №670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan.

Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi №670-I-son Qonunining 21-moddasiga asosan, qonunchilikka muvofiqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

### **Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:**

1.Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga mos ravishda tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari me’yorlariga javob beradi. Mazkur shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqoralik Kodeksining Pudrat shartnomasi munosabatlarni tartibga soluvchi 37-bobi jumladan, 631-655-moddalari bilan tartibga solinadi.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 3-sentyabridagi “Kapital qurilishda iqtisodiy munosabatlari mexanizmini takomillashtirish choralarini to‘g‘risida”gi 395-sonli qaror me’yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to‘liq mos keladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.09.2021 yildagi PF-6313-son Farmoniga asosan ishlab chiqilgan.

3. Shartnomalarining javobgarligini belgilovchi me'yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog'liq shartlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risda"gi qonunida, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to'liq mos keladi.

4. Mazkur xulosani tuzish vaqtida tomonlarning mazkur Shartnomalarini bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi hechqanday omillar, davlat boshqaruvenning qonuniy yoki boshqa ko'rsatmalari mavjud emas.

Yuqorida gilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

**XULOSA:**

Amudariyo tumani Xalq ta'limi bo'limi tomonidan 2022-yil 5-sentabrda ishlab chiqilgan "Pudrat" shartnomasining qabul qilinishi **muvofiqligi haqida**.

**Amudaryo tumani adliy bo'limi  
yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti:**



J.O.Avezov